

# **Uzbekistan Airways bilan sayyor qabullarda muloqotga qo'shiling!**

**2023 28 August**

Uzbekistan Airways 29-avgust kuni Farg'ona va Marg'ilon shaharlarida aholining aviakompaniya faoliyati bilan bog'liq masalalarini tezkorlik bilan hal etish va joylarda fuqarolarning murojaatlari uchun qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadida sayyor qabul tashkil etishni rejalashtirgan.

Uchrashuvda ishtirok etishni xohlovchilar quyidagi manzillar bo'yicha kelishlarini so'raymiz.

Farg'ona shahri soat 10.00 – viloyat Tadbirkorlar uyi, A.Navoiy ko'chasi, 17-uy.

Marg'ilon shahri soat 15.00 – Marg'ilon shahar hokimiyati, Mustaqillik ko'chasi, 448a uy.

Batafsil ma'lumot uchun +998781404520 raqamiga qo'ng'iroq qiling.